

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MEHNAT BOZORIDA AHOLI BANDLIGINI STATISTIK TAHLILI

Chintemirova Diyora Shuxrat qizi

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti

2-bosqich talabasi

E-mail: shuxratishqulov3@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlari hamda aholining bandlik darajasi statistik jihatdan o‘rganilgan bo‘lib, bandlikning tarmoqlararo va demografik sohalar bo‘yicha tafsilotli tahlillar amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Mehnat bozori dinamikasi, aholi bandligi darajasi, statistik tahlil, tarmoq tahlillari, ijtimoiy barqarorlik.

Аннотация. В данной статье статистически изучены основные показатели рынка труда Республики Узбекистан и уровень занятости населения, проведён подробный анализ занятости по отраслям и демографическим направлениям. По результатам исследования разработаны научно обоснованные предложения, направленные на укрепление социально-экономической стабильности в стране.

Ключевые слова: Динамика рынка труда, уровень занятости населения, статистический анализ, отраслевой анализ, социальная стабильность.

Abstract. This article statistically examines the main indicators of the labor market in the Republic of Uzbekistan and the employment level of the population, providing a detailed analysis across sectors and demographic areas. Based on the research findings, scientifically grounded proposals have been developed aimed at strengthening the country's socio-economic stability.

Keywords: Labor market dynamics, employment level, statistical analysis, sectoral analysis, social stability.

KIRISH

Hozirgi davrda aholining bandligini ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va ijtimoiy farovonlikni oshirish maqsadida davlat tomonidan izchil dasturlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilga mo'ljallangan "Aholi bandligini ta'minlash va qashshoqlikni kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-12-sonli Farmoniga muvofiq, respublika miqyosida mehnat bozoridagi murakkab muammolarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Bularga doimiy ish o'rinlarini ko'paytirish, yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalar a'zolarining mehnat faoliyatini rag'batlantirish, tashqi mehnat migratsiyasini tizimli boshqarish, shuningdek, o'zini-o'zi band qilishning innovatsion usullarini joriy etish kabi strategik yo'nalishlar kiradi.

Har bir davlatning iqtisodiy rivojlanishida asosiy determinativlardan biri sifatida aholining bandlik darajasi ajralib turadi. Bandlik yoki aholini mehnat faoliyati bilan ta'minlash tushunchasi, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ish bilan shug'ullanishi, shaxsiy va jamoat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, qonuniy asoslangan daromad manbai sifatidir [2]. Bandlik masalasi multidisiplinar xususiyatga ega bo'lib, u:

- Fuqarolarga professional salohiyatlarini amalga oshirish uchun teng imkoniyatlar yaratadigan davlat va bozor interaksijasini shakllantirish;
- Ishchi kuchini iqtisodiyotning samaradorligini oshiruvchi sohalarga qaratish;
- Mehnat resurslarini tarmoqlar va hududlar bo'yicha optimal taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish kabi jihatlarni qamrab oladi [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston aholisi tez o'sib borayotgan va demografik salohiyati yuqori mamlakat bo'lganligi tufayli, mehnat bozori va aholi bandligini ta'minlashda o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Ushbu yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarni tahlil qilishda turli xil tadqiqotlar, adabiyotlar va yondashuvlar muhim ro'l o'ynaydi.

Klassik va neoklassik nazariyaning asoschilaridan bo'lgan Adam Smit (1723–1790), Devid Rikardo (1772–1823), Tomas Robert Maltus (1766–1834), Alfred Marshall (1842–1924), Jon Meynard Keyns (1883–1946), Milton Fridman (1912–2006), Pol Entoni Samuelson (1915–2009) va boshqa ko'plab olimlar o'z tadqiqotlarida mehnat bozori va aholi bandligi bo'yicha turli xil g'oyalarni ilgari

surganlar. Ingliz olimi Jon Meynard Keyns (1883–1946), “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” nomli tadqiqot ishining muallifi sifatida, umumiy bandlik darajasi taxminan 3% ishsizlikni ko‘rsatishini ta’kidlagan [4].

T.Jo‘rayev ishsizlik masalasini O‘zbekiston sharoitida o‘rganib, o‘zining “Aholini o‘z-o‘zini bandlikka jalb qilish orqali ishsizlik darajasini pasaytirish” [5] nomli maqolasida ishsizlik darajasini kamaytirish uchun aholining o‘z-o‘zini band qilish imkoniyatlarini oshirish masalalarini ko‘rib chiqqan. Shuningdek, K.Xakimov, S.Alijonov va G.Turayeva “O‘zbekistonda ish bilan ta‘minlash va aholi band bo‘lmagan statistik ko‘rsatkichlari” nomli tadqiqotlarida bandlik darajalarini statistik tahlil qilgan[8].

B.SH. Akbarova tadqiqotlarida Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida aholi ish bilan bandligi siyosati va ishsizlik darajasi, mehnat bozori bilan bog‘liq muammolarini yoritilish o‘rganilgan. Respublikamiz shahar va shaharchalarda doimiy aholi soni, mehnat bozorining asosiy ko‘rsatkichlari, mehnat bozorida tanglik darajasi, ish bilan ta‘minlashga muhtoj bo‘lgan aholi soni dinamikasi va aholining ishsizlik darajasi tahlil qilingan[6].

M.M. Mirolimov " Mehnat bozorida mehnat resurslariga talab va taklifning nisbatini aniqlovchi omillar va shart-sharoitlar aholini ish bilan bandligi siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishlari va tamoyillari bilan raqobatga (yohud ziddiyatga) kirishishi mumkinligi haqida o‘z tadqiqotlarida tahlil qilgan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aholining ish bilan ta‘minlanganlik darajasi, bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va Bandlik vazirligining 2024-yil noyabr oyidagi ma‘lumotiga ko‘ra, respublika bo‘yicha 876 ming nafar ishga joylashishga muhtoj aholi mavjud (yil boshida 1 ming 24 ming nafar bo‘lgan). Mehnatga layoqatli aholi o‘rtasida ishsizlik darajasi esa yil boshiga nisbatan 1 foiz punktga yoki 6,8 foizdan 5,8 foizga kamaygan [8].

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisi sonining muntazam o‘shishi hamda mehnatga layoqatli aholini ish bilan taminlashda hududiy tafovutlarning kuzatilishi bandlik darajasini tadqiq etish zaruratini yanada oshirmoqda.

№	Hududlar	2020	2021	2022	2023	2023-yilda 2020-yilga nisbatan o‘zgarishi, %
1	Qoraqalpog‘iston Res.	6,2	6,1	6,6	6,9	1,5
2	Andijon	6,5	8,2	9,5	0,6	6,2
3	Buxoro	8,3	7,2	7,2	8,7	0,6
4	Jizzax	6,2	7,5	6,2	6,3	0,2
5	Qashqadaryo	6,0	2,2	1,9	1,9	1,6
6	Navoiy	6,8	8,3	7,7	9,8	4,5
7	Namangan	5,6	5,5	4,8	5,9	1,4
8	Samarqand	3,2	3,7	4,7	5	2,8
9	Surxondaryo	3,9	4,5	4,2	3,8	-0,2
10	Sirdaryo	4,8	4,5	4	3,8	-1,5
11	Toshkent vil.	8,2	2,4	1	2,2	5,9
12	Farg‘ona	5,1	6,2	7,1	8,4	5,1
13	Xorazm	3,7	4	4,7	6,9	5,0
14	Toshkent sh.	8,1	1,3	2,5	2,3	0,7

	6	6	6	6	
JAMI:	6	7	7,2	7,9	2,9

1-rasm. Hududlar kesimida bandlar soni, ming kishi¹

Yuqorida tahlil qilingan 1-rasmdagi jadvaldan ko‘rishimiz mumkinki, 2020-2023-yillar oralig‘idagi O‘zbekistonning bandlik darajasi hududlar kesimida sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. 2020-yilda mamlakat bo‘yicha jami 66 ming nafar aholi ish bilan ta‘minlangan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 67,9 ming kishiga yetgan. Bu esa to‘rt yil ichida bandlik ko‘rsatgichining 2,9% ga o‘sganini anglatadi. Ba‘zi viloyatlarda bandlik darajasi keskin ko‘tarilgan bo‘lsa, boshqalarida esa o‘zgarish nisbatan sekin kechgan.

2020-2023-yillar oralig‘ida eng sezilarli o‘sish kuzatilgan hudud Andijon viloyati bo‘lib, 66,5 mingdan 70,6 mingga (6,2%) o‘sgan. Sirdaryoda esa eng kam o‘zgarish ya‘ni, 64,8 mingdan 63,8 mingga (-1,5%) tushish kuzatilgan. Shu o‘rinda Toshkent viloyati, Farg‘ona va Xorazm viloyatlari to‘rt yil davomida bandlik darajasi sezilarli ko‘tarilgan hududlar bo‘lgan. Bu hududlarda mos ravishda 5,9 foiz, 5,1 foiz va 5 foizga nisbatan o‘sish kuzatilgan.

2023-yilda Qashqadaryo (61,9 ming) Qoraqalog‘iston Res. (62,9 ming) va Surxondaryo (63,8 ming) viloyatlarida aholini ish bilan ta‘minlash kam ko‘rsatkichni qayt etgan. Sababi, bu viloyatlarda yirik sanoat korxonalari kamligi hisobiga bo‘lishi mumkin.


¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasining rasmiy sayti tomonidan berilgan ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan ishlandi.



2-rasm. Bandlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, %²

Keltirilgan 2-rasmdagi ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi hududida umumiy bandlik darajasining deyarli 24 foizini qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati turi egallagan bo'lib, bu soha bo'yicha eng ko'p aholi ish bilan ta'minlangan. Shu qatorda, ishlab chiqarish sanoati, ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash; boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish; qurilish va ta'lim ish faolyatlari o'rtacha 10,8 fozini tashkil qilgan. Lekin, bandlik darajasini eng kam qamrab olgan iqtisodiy faoliyatlari suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish hamda, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash bo'lib, umumiy bandlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi 0,3 va 0,4 foizni tashkil qilgan.

² O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasining rasmiy sayti tomonidan berilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlandi.



3-rasm. Jami bandlarda erkaklar va ayollarning ulushi, %³

3-rasmdagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, Respublikamizda band erkaklarning jami bandlardagi ulushi 2016-yilda 54,3% bo'lib, 2018-yilda esa 58,4% ga keskin o'sgan. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich 58,3% - 58,8% oralig'ida barqaror saqlanib qolgan. Ayollarning jami bandlardagi ulushi 2016-yildan 2018-yilgacha -4,1% ga pasaygan bo'lsada, 2019-2023 yillar davomida 41,2% - 41,7% oralig'ida deyarli o'zgarmagan. Jumladan, 2017-yildan boshlab erkaklar bandligi sezilarli oshgan bo'lsa, aksincha ayollar bandligi kamaygan. Bu mehnat bozorida gender tengsizligining oshganligini ko'rsatishi mumkin. Lekin, 2023-yilda ayollar bandligida biroz ijobiy o'zgarish bo'lgan, bu esa ayollarning ish bilan ta'minlanish imkoniyatlari biroz yaxshilanganini ko'rsatishi mumkin.

Xulosa va Takliflar

Aholining mehnat faoliyati bilan ta'minlanishi mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotiga bo'lgan ta'siri bilan birga ijtimoiy barqarorlikni shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli, fuqarolarning turmush darajasini oshirish va mehnat bozorida barqarorlikni ta'minlash maqsadida bandlik masalasiga strategik yondashuv

³ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasining rasmiy sayti tomonidan berilgan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlandi.

zaruriyatini ta’kidlash lozim. O‘zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonlari davomida aholi bandligini ta’minlash dolzarb iqtisodiy muammoga aylanganligi qayd etiladi. Bu jarayonda mehnat bozorida ish beruvchilarning talablariga mos kelmaydigan malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan ish qidiruvchilar sonining ortishi, mehnat bozori talabi va taklifi o‘rtasidagi nomuvozanatlikni keltirib chiqardi. Ushbu muammolarni bartaraf etish va mehnat bozorining samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflar ilmiy asosda ishlab chiqilgan:

1. Malakali kadrlar tayyorlashni takomillashtirish – Mehnat bozoridagi talab va taklif muvozanatini ta’minlash maqsadida ta’lim tizimi bilan ishlab chiqarish sohalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, kasb-hunar ta’limini zamonaviy talablar asosida qayta shakllantirish, shuningdek, amaliy bilim va ko‘nikmalarga asoslangan o‘quv dasturlarini joriy etish.

2. Ayollar va yoshlarning mehnat faoliyatini rag‘batlantirish – Ushbu ijtimoiy guruhlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan davlat dasturlarini kengaytirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha moliyaviy subsidiyalar va soliq imtiyozlarini joriy etish, shuningdek, ularning malaka oshirishiga yo‘naltirilgan treninglar tashkil etish.

3. Investitsion sharoitlarni yaxshilash – Mahalliy va xorijiy investorlar uchun soliq va ma’muriy imtiyozlarni takomillashtirish orqali sanoat va xizmat ko‘rsatish sohaslarida yangi ish o‘rinlari tashkil etishni rag‘batlantirish.

4. Raqamlashtirish va masofaviy ish imkoniyatlarini kengaytirish – Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, masofaviy ish shakllarini rag‘batlantirish va aholining texnologik savodxonligini oshirish orqali mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini demokratizatsiya qilish.

Yuqoridagi chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilganda, O‘zbekistonda mehnat bozorining barqaror rivoji ta’minlanadi, aholi bandligi sifati va darajasi oshadi, natijada ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiluvchi yechimlar samaradorligi kuchayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-12-son qarori <https://www.lex.uz/uz/docs/-7327821>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bandlik#> O‘zbekistonda _bandlik
3. Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. –T.: Toshkent «TDIU» nashriyoti, 2020. 586 bet.
4. LERNER, A. (2013). Mr Keynes' “General Theory of Employment, Interest and Money”. International Labour Review, 3, 36-40.
5. Jorayev T.T. Iqtisodiy nazariya. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018. – 512 b.
6. Shuxratovna, Akbarova Barno. "ISHSIZLIK." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 65.5 (2025): 96-107.
7. M. Mirolimov, in his article "STATISTICAL ANALYSIS OF THE LABOR MARKET IN NEW UZBEKISTAN" in the 2024 Eurasian Journal of History, Geography and Economics
8. “O‘zbekistonda ish bilan ta’minlash va aholi band bo‘lmagan statistik ko‘rsatkichlari”. *Нововведения Современного Научного Развития в Эпоху Глобализации: Проблемы и Решения*, 1(6), 2023.128-130. <https://uzresearchers.com/index.php/NSNR/article/view/1498>
9. Shuxratovna, Akbarova Barno. "ISHSIZLIK STATISTIKASI VA UNING IQTISODIY TA’SIRI." *ТА’ЛИМ, ТАРБИЯ ВА INNOVATSIYALAR JURNALI* 1.4 (2025): 80-83.
10. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va Bandlik vazirligi. <https://gov.uz/oz/bv>
11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi. <https://stat.uz/uz/>